

## QASHQADARYO VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI MUZEYI

**Ergasheva Shaxista Abduragim qizi**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Muzey menejmenti va madaniy turizm ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi faoliyati haqida so'z yuritiladi. Muzeyda olib borilayotgan ko'rgazmalar, tadbirlar, undagi eksponatlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *muzey, predmet, buyum, fond, material, eksponat, ekspozitsiya, eksplikatsiya, bo'lim.*

**Annotation:** *This article talks about the activities of the Museum of History and Culture of Kashkadarya Region. Information about the exhibitions, events and exhibits held in the museum is covered.*

**Key words:** *museum, object, item, fund, material, exhibit, exposition, explanation, section.*

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о деятельности Музея истории и культуры Кашикадарьинской области. Предоставляется информация о выставках, мероприятиях и экспонатах, проводимых в музее.

**Ключевые слова:** *музей, предмет, предмет, фонд, материал, экспонат, экспозиция, пояснение, раздел.*

2012-yil avgust oyida muzeyda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-yilligiga bag'ishlab, muzey ko'rgazmasini qayta tashkil qilish maqsadida muzeyning "Taqdirimsan, baxtimsan erkin va obod vatan" shiori ostida O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 21-yilligi va Konstitutsiya qabul qilinganligining 20-yilligiga bag'ishlab tuzilgan ko'rgazma ilmiy konsepsiysi va ilmiy tematik rejasi ishlab chiqildi. Mazkur ilmiy konsepsiya asosida muzeyda yangi ko'rgazma tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasining «Muzeylar to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi, 2008-yil 31-oktyabrdagi "Muzeylar faoliyatiga taalluqli me'yoriy hujjatlar to'g'risida"gi 237-sonli, 2010-yil 12-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunni ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan noramativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 68-sonli qarorlari qabul qilingach, vohada zamonaviy talab darajasidagi muzey binosi qurish zarurligi yaqqol ko'zga tashlandi. Shunga ko'ra 2012-yil muzey yangi binosida ekspozitsiya tashkil etish uchun konsepsiya ishlab chiqildi .

Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy yodgorliklar haqidagi kitob-albomning 1-jildi viloyat O'lkani o'rganish muzeyida nashrga tayyorlandi. Yodgorliklardagi yozuvlarni o'rganish jarayonida, ma'lum bo'lmagan bir qator tarixiy matnlarning tiklanib, epigrafik yozuvlarni o'rganish va ilmiy tatbiq etish ishlari davom etmoqda.

Muzey fondi ashyolari qayta kolleksiyaga ajratiladi.

- Moddiy yodgorliklar.
- Tasviriy san'at namunalari.
- Yozma yodgorliklar.
- Numizmatika ashyolari.
- Amaliy san'at namunalari.
- Arxeologiya buyumlari.
- Maishiy etnografiya buyumlari.
- Suratlar
- Hujjatlar.
- Boshqa ashyolar.

3. Fond tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olinib va saqlash tartiblari o'r ganib chiqildi. Muzeyning kirim kitobi (KP) ga kiritilgan buyumlar 2009-yilda soni 20792 donani tashkil etgan. Shundan asosiy fond eksponatlari soni 15653 ta.

Jumladan:

- Rassomchilik – 157 ta
- Grafika – 28 ta
- Amaliy san'at asarlari – 380 ta
- Haykaltaroshlik – 1
- Numizmatika – 1228 ta
- Arxeologiya – 3201 ta
- Maishiy va etnografiya buyumlari – 831 ta
- Fotosuratlar – 4255 ta
- Hujjatlar – 1988
- Va boshqa buyumlar – 3584 ta
- Qo'shimcha ashyolar soni 5139 ta
- Jami – 20792 donani tashkil etgan.
- 2012 -yilda bu eksponatlар soni:
- Arxeologiya – 9917 ta
- Hujjatlar – 11 ta
- Xalq amaliy san'ati buyumlari – 13 ta
- Haykaltaroshlik – 6 ta
- Maishiy va etnografiya buyumlari – 6 ta
- Numizmatika – 3 ta
- Boshqa buyumlar – 2 taga ortib,

• Jami – 9958 dona eksponatlар bilan muzeyning kirimi kitobi (KP) boyitildi. 2012-yilda asosiy fond eksponatlар soni jami 25611 donani tashkil etdi. 5139 dona qo'shimcha ashyolar bilan birga hisoblanganda muzey ashyolari jami 30750 donaga yetdi.

Dastlab Qashqadaryo viloyat o'lkani o'r ganish muzeyi 1909-yilda qurilgan Xo'ja Abdulaziz madrasasida 1975-yildan 2007-yilga qadar faoliyat ko'rsatib kelgan.

2007-yildan muzey moslashtirilgan binoda joylashgan.

Xalq amaliy san'ati bo'limi haqida ma'lumot. Tarixi Qashqadaryo viloyat o'lkani o'rganish muzeyi 1909-yilda qurilgan Xo'ja Abdulaziz madrasasida 1975-yildan 2007-yilga kadar faoliyat ko'rsatib kelgan. Dastlabki davrda 3 ta bo'lim: inqilobgacha bo'lgan davr, inqilobdan keyingi davr hamda tabiat bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. 1992-yil inqilobgacha va inqilobdan keyingi davr bo'limlari tarix bo'limiga aylantirildi, shu yildan xalq amaliy san'ati bo'limi ham alohida binoda faoliyat ko'rsata boshladi.

Muzeyning Xalq amaliy san'ati bo'limida amaliy san'at buyumlari – 380 dona , maishiy va etnografiya buyumlari esa 850 donani tashkil etadi.

Xalq amaliy san'ati bo'limida SKM dasturiga kiritilgan eksponatlar soni 540 donani tashkil etadi. Jumladan 110 donasi ayollar taqinchoqi, 160 dona so'zana, 74ta gilamlar, 106 dona liboslar, 90 ta maishiy etnografiya buyumlari.

Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq xunarmandchiliqi tarzida rivojlanib, san'atning eng qadimgi rivojlangan va barhayot turi bo'lib kelgan. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo'yraчhilik kabi turlari viloyat o'lkani o'rganish muzeyi fondidan ham o'rinn olgan .

Muzey amaliy san'at bo'limida gilamlar, poloslar, so'zanalar, joynomozlar, zardo'zlik buyumlari, iroqi do'ppilar, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik buyumlari, turli hajmdagi dekorativ sopol sirli idishlar mavjud. Ushbu buyumlar millodning XVIII – XX asrlariga oiddir. Shu bilan bir qatorda bo'limda etnografiya buyumlari – ayollar va erkaklarning milliy liboslari, chopon, chakmon, belqars, paranji, xotin-qizlar taqinchoqlari, misdan yasalgan maishiy buyumlar ham mavjud. Ushbu buyumlar milodning XIX – XX asrlariga oiddir.

Muzey xalq amaliy san'ati buyumlari kolleksiyasiga ayollar taqinchoqi «manglay to'zi» XIX asr oxirlari, kumush va aqiqdan, zanjirsimon toblab ishlangan. Mis choynak XIX asr oxirlari- kandakori o'yma bo'rtma usulida ishlangan. Bilakuzuk qoraqalpoq taqinchoqi XIX asrda ishlangan, har birida to'qqiz donadan aqiq toshi bor. Kumush va aqiqdan qoliplash, qadama usulida ishlangan. Kumushdan ishlangan ayollarning uzuk va xalqalari XIX asr oxiri XX asr boshlari. Ikona – Iso paygambar XVIII asr – Rossiyaning Primoriy o'lkasiga taalluqli. Jezdan (latun) qo'yma, qoliplash, kandakori usulida ishlangan. Qo'qon va Buxoroda ishlangan mis choyidishlar – XIX asrda misdan, urib toplash, kandakori usulida ishlangan. Buxoroda ishlangan mis kosalar va piyolalar XIX asrda misdan urib toplash, qo'yma kandakori usulida ishlangan. Qarshi shahridagi Xoja Ubaydullox Jarrox ziyoratgohining darvozasi zulpi va zanjiri XVIII asrga oid. Mis, quyma qoliplash o'yma usulida ishlangan .

Qashqadaryo vohasida qadimdan kulolchilik maktablari rivojlanib kelgan. Muzeyda Kitob kulolchilik maktabi ustalarining XX asr 50 – 60-yillarda ishlagan kulolchilik buyumlari namunalari ham o'rinn olgan. Ayollarning qo'lda to'qilgan shoyi, adres olachadan tikilgan kaltachalari va ko'yylaklari XIX asr oxiri XX asr boshlari. Qashqadaryoning Shahrisabz va Kitob tumanlarida iroqi usulida qo'lda tikilgan erkaklar va ayollar do'ppilari, qopchiq (kashelyok ) lar, ularning tanvor (zagatovka) lari, oyoq kiyimlar tanvorlari XX asr 20 – 70-yillariga taalluqli. Muzeyda Respublikamizning

Samarqand, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Jizzax vohasi kashtachilik maktabi namunalari ham mavjud. Bular qo'lda tikilgan so'zanalar, palaklar, joynomozlar, zardevorlar choyshablar bo'lib, XX asrning 20 – 80-yillarida tayyorlangan. So'zanalar kandaxayol, bosma, yo'rma usulida tikilgan.

Muzey Amaliy san'at bo'limida Qashqadaryo vohasida qo'lda to'qilgan gilamlar va poloslar kolleksiyasi ham bor. Ushbu buyumlar XX asrning 20-70-yillari qo'lda to'qish usulida yaratilgan. Gilamlar kolleksiyasida qo'lda to'qilgan xorazm va turkman gilamlari ham bor. Muzey fondida XX asrning 20-yillari Eronda qo'lda to'qilgan gilam mavjud. Gilam rangli islamiy naqshlar bilan dekorativ usulda ishlangan. Gilamning hajmi 3,75x5,40 m. Turkmanistonda qo'lda to'qilgan napramach (yog'ochdan yasalgan sandiqlarning oldi qismiga yopiladi, sandiqlar ustiga ko'rpa to'shaklar taxlab qo'yiladi) lar ham bor.

Mis surmadon – milodning XI asriga oid bo'lib, Ko'lbuqa yodgorligidan topilgan. Surmadon misdan qoliplash, o'yma naqshli uslubda ishlangan. Tashkil etilgan ko'rgazmalar. 2009-yil 4-aprel kuni buyuk Sohibqiron Amir Temur tavalludining 673-yilligi munosabati bilan Qarshi shahrining "Odina" majmuasida "Amir Temur va temuriylar obodonchiligi – tarixiy ma'naviy an'anamiz" ilmiy-amaliy konferentsiya o'tkazildi. Konferensiya munosabati bilan "Odina" majmuasida xalq amaliy san'ati bo'limi tomonidan "Amir Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan xalq amaliy san'ati" mavzusida ko'rgazma tashkil etildi.

2008-yilning 3-mayida Kitob tumanida o'tkazilgan "Asrlar sadosi" an'anaviy madaniy festivalida Viloyat o'lkani o'rganish muzeyi o'zining etnografik "Naqshlar jilosi" ko'rgazmasi bilan ishtirok etdi. Ko'rgazma uchun muzeyning fond bo'limidan 113 dona eksponatlar namoyish etildi.

2010-yil "Barkamol avlod yili"ga bag'ishlab, "Qashqadaryo jilolari" nomli xalq amaliy va tasviriy san'ati ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazma uchun muzey fondidan xalq amaliy san'ati bulimiga oid suzana, gilam, kangdakorlik buyumlari va XX asrning 70-80-yillariga oid bo'lgan kitob kulolchilik maktabi namunalari hamda bir qator etnografik buyumlar o'rinnoldi.

2017-yil 19-mart kuni viloyat o'lkani o'rganish muzeyi va Qarshi davlat universiteti bilan hamkorlikda "Navruz" umumxalq bayrami tadbirlari munosabati bilan universitet qoshida "o'tov" tashkil etildi. Ko'rgazma uchun muzey fondidan bir qator etnografik asoriatiqalar o'rinnoldi.

Muzeyning xalq amaliy san'ati bo'limi muzey xodimlari bilan hamkorlikda 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"ga bag'ishlab Qashqadaryo etnografiyasini va xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi muzey foyesida namoyish etildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Орифжонова Г.Р. Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишнинг тарихий-маданий жиҳатлари (Ўзбекистон музейлари коллекциялари мисолида). Монография. – Тошкент: «Lesson-press» нашриёти, 2021. – Б 167.

2. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 173.

3. Ис маилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 158.
4. <https://e-muzey.uz/>